PEDAGOGIKA

UDK: 378.147:930.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a4**

ARALASH TA'LIM – BO'LAJAK TARIXCHILARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA

СМЕШАННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ — КАК ЭФФЕКТИВНОЕ СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ИСТОРИКОВ

MIXED EDUCATION – AS AN EFFECTIVE MEANS OF DEVELOPING INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN FUTURE HISTORIANS

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich[1]

[1]**Siddiqov Ilyosjon Baxromovich** − Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).

Annotatsiya

Mazkur maqolada aralash ta'limning kelib chiqishi, "aralash ta'lim" termini haqidagi turli fikr va qarashlar, aralash ta'limga talabalarning ta'lim olishini yaxshilash, o'qituvchilarning o'qitish usullarini o'zgartirish maqsadida texnologiyalar va internet yordamida masofaviy o'qitishning yangi usuli sifatida qarala boshlanganligi, aralash ta'lim an'anaviy va masofaviy o'qitishning turli modellarini birlashtirgan hamda texnologiyaning bir nechta shakllaridan foydalanadigan o'quv strategiyasi ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается происхождение смешанного обучения, различные мнения и взгляды на термин «смешанное обучение», рассматривается смешанное обучение как новый метод дистанционного обучения с помощью технологий и Интернета с целью улучшения обучения учащихся, изменения методов обучения. Обучая учителей, смешанное обучение сочетает в себе различные модели традиционного и дистанционного обучения, и утверждается, что это стратегия обучения, в которой используются несколько форм технологий.

Abstract

In this article, the origin of blended learning, different opinions and views about the term blended learning are discussed. Blended learning is considered as a new method of distance learning with the help of technology and the Internet in order to improve student learning, change the methods of teaching teachers, blended learning combines different models of traditional and distance learning, and It is argued that it is a learning strategy that uses multiple forms of technology.

Kalit so'zlar: *aralash ta'lim, informatsion-analitik kompetentlik, masofaviy ta'lim, ana'anaviy ta'lim, ta'lim integratsiyasi, telekonferens aloqa dasturlari, internet va raqamli media vositalari, interfaol, virtual ta'lim.*

Ключевые слова: *смешанное обучение, информационно-аналитическая компетентность, дистанционное обучение, традиционное обучение, образовательная интеграция, программы телеконференцсвязи, Интернет и цифровые медиа, интерактивное, виртуальное образование.*

Key words: *mixed education, information-analytical competence, distance education, traditional education, educational integration, teleconference communication programs, Internet and digital media, interactive, virtual education*.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak tarix o'qituvchilarining innovatsion faoliyati kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Bu borada tarix o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi, kompleks tayyorlash, ta'lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma'lumotlarni qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish muammosi oliy ta'limning dolzarb va muhim vazifasi hisoblanadi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi kasbiy faoliyatida o'qituvchilik, ilmiy-metodik, ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy, korreksion-rivojlantiruvchi va boshqaruv faoliyati bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini belgilab olishi talab qilinadi.

O'qituvchi kasbiy kompetentligining asosiy komponentlari orasida informatsion-analitik kompetentlik alohida o'rin egallaydi. Informatsion-analitik kompetentlik bo'lajak mutaxassislarning nafaqat asosiy bilim va ko'nikmalarini egallashlarini, balki izlanishlar va ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni ham egallashni ko'zda tutadi. Bo'lajak mutaxassisning informatsion-analitik

kompetentligini shakllantirishni biz nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning yuqori darajasi, shuningdek, informatsion-analitik faoliyatini tashkil etishga tayyorgarlik sifatida belgilaymiz.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda aralash ta’limning imkoniyatlaridan foydalanish, elektron ta’lim sharoitida masofaviy ta’lim va an’anaviy ta’limni integratsiyalash asosida tarix ta’limini zamonaviylashtirish masalalari dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aralash ta’lim tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aralash ta’limning kelib chiqishi raqamli texnologiyalar paydo bo‘lishiga qadar bo‘lgan. Uning mohiyati sirtqi ta’lim orqali masofadan o‘qitishdan iborat bo‘lgan. Masalan, 1919-yil Kanadada mayoq xizmatchilarining bolalari sirtqi ta’lim orqali bilim olib, o‘qimishli kishilar qatoriga kiritilgan[1:115]. Aralash ta’limdan foydalanish sababi sifatida masofalarning uzoqligi keltirilgan. XX asrning oxiriga kelib esa, aralash ta’limga talabalarning ta’lim olishini yaxshilash va o‘qituvchilarning o‘qitish usullarini o‘zgartirish maqsadida texnologiyalar va internet yordamida masofaviy o‘qitishning yangi usuli sifatida qarala boshlandi, bu o‘qituvchiga asoslangan ta’lim modeliga qaraganda ko‘proq talabaga yo‘naltirilgan hisoblanadi[10:1779]. Atama soha doirasida ilk marta 1999-yili Atlantada joylashgan “Interactive Learning Centres” ta’lim kompaniyasi tomonidan “EPIC Learning” deb nomlangan press-relizda qo‘llanilgan: kompaniya hozirgi kunda 220 ta onlayn kurslarni ishlab chiqqan, yaqin kunlarda kompaniya Blended Learning metodologiyasidan foydalangan holda o‘z internet dasturlarini taklif qila boshlaydi» — deb yoziladi press-relizda[7].

So‘nggi yillarda «aralash ta’lim» termini haqida turli fikr va qarashlar mavjud bo‘lib, ushbu terminning soha olimlari tomonidan keltirilgan ta’riflarini o‘rganish orqali tadqiqotimiz davomida bu usulning maqsad va vazifalarini aniqlashtiramiz. «Defining blended learning» («Aralash ta’lim ta’rifi») nomli risolada tadqiqotchi M.Frizn «aralash ta’lim» atamasi 1999-yildan boshlab ishlatila boshlanganini aniqlagan[6]. Shuningdek, «Aralash ta’lim ta’rifi» risolasida «Bu ta’lim turini internet va elektron ommaviy axborot vositalarini o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi sinfda jismoniy ishtirok etishni talab qiladigan shakllar bilan birlashtirish orqali taqdim etiladigan imkoniyatlar doirasi», deb ta’riflagan[6].

2003-yili tadqiqotchi K.Prokter o‘z ilmiy ishida aralash ta’limni «turli xil o‘qitish usullari, o‘qitish modellari va o‘quv uslublarining samarali kombinatsiyasi», deb ta’riflaydi[18]. Chu, Jons va Ternerning ilmiy nazariyasiga ko‘ra, «aralash ta’lim ikki muammoli yo‘nalishni o‘zida uzviylashtiradi: ta’lim va ta’lim texnologiyasi»[5]. CH.Gremning ta’rifi ancha mukammal bo‘lib, u «aralash ta’lim tizimlari yuzma-yuz o‘qish hamda kompyuter vositasida o‘qitish bilan birlashtiriladi», deydi[5]. Bu tushuncha ta’lim berishda ikki usulni qo‘llash va ushbu ikki usulning ba’zi kombinatsiyalari aralashmasini belgilaydi. Grem ushbu ta’rifni taklif qilgan paytda, kompyuter vositasida aloqa asosan asinxron va matnga asoslangan deb qaralgan.

Endilikda telekonferens aloqa dasturlari odatiy tusga aylanganligi sababli, M.Frizn «yuzma-yuz»ni «hamkorlikda ishlash» (co-present) deb qayta belgilashni taklif qildi. M.Frizn «aralash ta’lim»ni internet va raqamli media vositalarini sinf darslari bilan birlashtirish orqali taqdim etiladigan imkoniyatlar qatoriga kiritadi, bunda o‘qituvchi va talabalarning dars jarayonida ishtirok etishi talab qilinadi[7]. Ushbu ta’rif va ko‘rsatmalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda vazifalar onlayn tarzda berilishi kerakligi ta’kidlanmoqda, ya’ni talabalar tadqiqot uchun internetdan foydalanishini taklif etayotgan an’anaviy yuzma-yuz kursi aralash ta’limga mos kelmaydi. «Supervised brick-and-mortar location» iborasi «yuzma-yuz» o‘qitish elementi an’anaviy sinf xonasida bo‘lishi shart emasligini anglatadi. Uotson va Murin Staker boshqa tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ta’rifning kengaytirilgan versiyasini taqdim etadilar: «Aralash ta’lim — rasmiy ta’lim dasturi bo‘lib, bunda talaba vaqt, joy va yo‘li yoki tezligi ustidan o‘z-o‘zini nazorat qilish elementlari mavjud bo‘lgan qisman onlayn, shuningdek, uydan uzoqda joylashgan maskanda an’anaviy ta’lim va har bir talabaning fan doirasidagi o‘rganish usullari tajribasi orqali ta’lim integratsiyasini ta’minlash jarayonidir»[15:45].

Rus tadqiqotchilaridan T.Krasnova fikriga ko‘ra, aralash ta’lim — o‘qitishning eng samarali usullarini yuzma-yuz va onlayn interfaol o‘zaro ta’sirni birlashtirgan o‘quv uslubi bo‘lib, bu doimiy bir-biriga bog‘liq holda ishlaydigan va bir butunlikni tashkil etadigan tizimdir[16]. Boshqa olimlar I.Steysi va P.Gerbik atamaning bir qancha ta’riflarini ko‘rib chiqadilar va ularning ta’riflariga ko‘ra, aralash ta’lim hech bo‘lmaganda «virtual va jismoniy muhitlarning kombinatsiyasini» o‘z ichiga olishi darkorligini ilmiy nuqtayi nazardan ilgari suradilar[13]. R.Launer esa, aralash ta’limni

«texnologiya tomonidan qo‘llab- quvvatlanadigan mustaqil o‘qish yoki masofaviy o‘qitish va yuzma-yuz aloqalar o‘rnatish kombinatsiyasi» deya ta’riflaydi[9:11-12]. Boshqa bir olim Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday yozadi: “Ushbu atama bir nechta o‘qitish metodlarini o‘z ichiga olgan o‘quv natijalariga ishora qiladi, ayni paytda, muayyan vaqtda elektron ta’lim va mustaqil ta’lim uyg‘unligidagi turli xil faoliyat turlarini qamrab oladigan ta’limni tavsiflash uchun qo‘llaniladi”[4]. Zero, «o‘qish va o‘qitish samaradorligini oshirishda, oldindan tayyorlangan onlayn darslar va o‘quv xonasida yuzma-yuz (face-to-face) an’anaviy o‘tiladigan darslarning birlashuvini tashkil etuvchi o‘quv jarayoni — aralash ta’limdir»[12]. O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan onlayn elementlar qo‘shimcha sifatida emas, balki aksincha, aralashgan ta’limda ham virtual, ham yuzma-yuz o‘qitishning eng samarali usullarining integratsiyasini talab qiladi[8:96-97].

NATIJALAR

Aralash ta’limning ko‘plab ta’riflarini tadqiq etar ekanmiz, ularning barchasida aralash ta’lim an’anaviy va masofaviy o‘qitishning turli modellarini birlashtirgan hamda texnologiyaning bir nechta shakllaridan foydalanadigan o‘quv strategiyasi sifatida ta’kidlanganini kuzatishimiz mumkin. Aralash ta’lim talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro muloqoti orqali o‘quv natijalarini faollashtirish maqsadida ma’lumot almashishi uchun bir nechta usullardan foydalanadigan dastur sifatida belgilangan[3:233].

2006-yili ushbu atama Bonk va Gremning «Aralash ta’lim to‘g‘risida» qo‘llanmasida ilk bor aralash ta’limning aniq tasnifi va uning asosiy xususiyatlari berilgan: aralash ta’lim — yuzma- yuz o‘qitish va kompyuter yordamida o‘qitishning kombinatsiyasiga asoslangan ta’lim tizimidir[2:125]. Tadqiqotchi olim Ye.Banados keltirgan ta’rif ko‘proq oliy ta’lim tizimiga taalluqlidir: «Aralash ta’lim — muayyan vazifalar uchun o‘zgarib turadigan texnologiyalar va birgalikdagi auditoriya ishlarining kombinatsiyasi. Ushbu yondashuv kompyuter yordamida bilimlarni taqdim etish, o‘qitish va ta’limni o‘lchashning afzalliklarini tan oladi, ammo natijalarni yaxshilaydigan yoki xarajatlarni kamaytiradigan to‘liq, muvozanatli dastur yaratish uchun boshqa vositalardan ham foydalanish mumkin»[14:56].

MUHOKAMA

Xizer Steyker va Maykl Xorn o‘zlarining «Blended Learning» («Aralash ta’lim») kitobida (Kleyton Kristensen instituti tadqiqotchilari) ta’lim berishda muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan ikki asosiy yondashuvini taklif etishadi:

1. Moslashtirilgan ta’lim yondashuvi. Ushbu yondashuv yordamida har bir talaba o‘quv jarayonida o‘z yo‘li bo‘yicha, o‘z tezligida, o‘z qiziqishlariga rioya qilgan holda harakat qilish imkoniyatiga ega. Moslashtirilgan yondashuv, talabalar kerak bo‘lganda kichik o‘quv guruhlari loyihalarida ham, individual o‘rganishda ham tajriba olishlari mumkin, deb taxmin qilishadi. Ushbu tushunchada o‘qituvchi o‘quv muhitida o‘quvchiga maslahatchi bo‘lib, jarayonning mohiyatini tushunishiga yordam beradi va uni mavzu doirasida fikr yuritishga o‘rgatadi.

2. Kompetentlikka asoslangan ta’lim. Talabalar keyingi bosqichga o‘tishdan oldin mavzuni yaxshi bilishi, qo‘llay olishi yoki bilim, ko‘nikma, malakalarni egallagan bo‘lishi lozim. Talaba har bir mavzuni ketma-ket o‘rganib, mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlab borishi kerak. Kompetentlikka asoslangan ta’lim mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda talabani qat’iyatli va sabrli bo‘lishga undaydi. Shunday qilib, aralash ta’lim — o‘qitish usullarining kombinatsiyasi bo‘lib, onlayn va yuzma-yuz o‘rganish elementlarini o‘zida birlashtiradigan jarayondir. Buni quyidagi Venn diagrammasi misolida quyidagicha tasvirlash mumkin:

3. Ilmiy adabiyotlarda aralash ta’lim («blended learning») tushunchasi gibrid ta’lim («hybrid learning»), texnologiyalar vositasida o‘qitish («technology-mediated instruction»), vebga asoslangan o‘qitish («web- enhanced instruction») va aralash rejimida o‘qitish («mixed-mode instruction») atamalari bilan deyarli sinonim tarzda ishlatiladi[11:19]. Ammo bu tushunchalar muayyan xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi:

Atama	Ta’rifi (tasnifi)
Internetdan foydalangan holda mashg‘ulotlar olib borish (Web-enhanced)	Onlayn faoliyatni minimal miqdorda ishlatish; mavzular, o‘quv reja va kurs e’lonlari onlayn tarzda joylashtiriladi.
Aralash ta’lim (Blended)	Yuzma-yuz o‘rganadigan ba’zi bir muhim jihatlar onlayn mashg‘ulotlarda foydalaniladigan mavzular 45% dan oshmasligi kerak.

Gibrid ta'lim (Hybrid)	Yuzma-yuz dars jarayonida mavzularning 45-80% ini onlayn mashg'ulotlar tashkil etadi.
Masofaviy ta'lim (Fully online)	O'quv materiallarining 80 foizi yoki undan ko'prog'i bo'lgan mavzular onlayn tarzda o'tkaziladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda samarali vosita bo'lgan aralash ta'limning muhim qismlaridan yana biri shundaki, u vaqt, joy, usul va yoki tezligi kabi o'z-o'zini boshqarishning elementlarini ham o'z ichiga oladi. Ya'ni:

— **vaqt**: o'rganish vaqti o'quv kursi davomida cheklanmaydi.

— **joy**: o'qitish joyi auditoriya bilan cheklanmaydi.

— **usul (yo'l)**: o'rganish o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar bilan cheklanmaydi. Interfaol va moslashuvchan dasturiy ta'minot o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan usulda o'rganish imkoniyatini beradi.

— **tezligi**: o'rganish barcha talabalar uchun cheklanmaydi.

Aralash ta'lim bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan eng katta markaz sifatida Kleyton Kristensen institutini aytish joiz. Kleyton Kristensen instituti — notijorat, nodavlat analitik markaz bo'lib, ta'sirchan (noyob) innovatsiyalar orqali dunyoni yaxshilashga asoslangan. Garvard professori Kleyton Kristensen nazariyalariga asoslanib tashkil etilgan institut jamiyatning ko'plab dolzarb muammolarini, shu jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy farovonlikni anglash uchun noyob asoslarni taklif etadi. 10 yildan ortiq vaqt mobaynida Kristensen instituti aralash ta'lim tamoyillari, amalga oshirish strategiyalarini o'rganadi va ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kleyton Kristensen instituti ta'rifiga ko'ra, aralash ta'lim — yuqori texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish bilan bir xil emas. Aralash ta'lim o'qituvchi talaba ishtirokida an'anaviy (yuzma-yuz) o'qitish bilan onlayn ta'lim birlashuvi bo'lib, bunda talaba tomonidan o'rganish yo'li, vaqti, joyi va tezligi bo'yicha o'zini o'zi boshqarish elementlarini hisobga olinadi, shuningdek, o'qituvchining ta'lim berish tajribasi va onlayn ta'lim integratsiyasi hamdir[17].

Ushbu ta'rifga tayangan holda shuni aytish mumkinki, aralash ta'lim quyidagilarni birlashtiruvchi ta'lim dasturi hisoblanadi:

— o'qituvchi ishtirokidagi ta'lim (yuzma-yuz);

— ta'lim oluvchi tomonidan o'rganish yo'lini, vaqtini, joyini va tezligini o'z-o'zini boshqarish elementlarini o'z ichiga olgan onlayn- ta'lim;

— o'qituvchining o'qitish tajribasi va onlayn ta'lim integratsiyasiga asoslangan ta'lim jarayoni. Demak, aralash ta'limning konseptual va terminologik apparati murakkab tizim asosida qurilgan bo'lib, bu tizim atamaga to'g'ri va muvofiq ta'rif berishdan tortib, uning qay tarzda va sharoitda tashkil etilishigacha bo'lgan elementlarni o'zida qamraydi. Aralash ta'limdan ta'lim jarayonida keng foydalanish orqali sohadagi bir qancha muammoli vaziyat va kamchiliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, ta'lim sifatini yanada oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o'qituvchi→maslahatchi tizimida faoliyat yuritish tizimiga o'tish kabi ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

XULOSA

Aralash ta'lim mutlaqo yangi tushuncha emas, u an'anaviy ta'limning mantiqiy, izchil rivojlanishidir. Talabalar vaqt-vaqti bilan onlayn dars mashg'ulotlarida ishtirok etishadi, maxsus dasturiy vositalarda yoki onlayn platformalarda vazifalar topshirishadi. Mavzu bo'yicha topshiriqlar individual va guruhiy shaklda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, topshiriqlarning bajarilishini o'qituvchi nazorat qila olishi va maslahatlar berishi mumkin. O'qituvchining asosiy vazifasi kursni to'g'ri tashkil etish va o'quv materiallarini taqsimlashdan iborat. O'qituvchi dars jarayonida qanday materiallarni o'zlashtirish, uyda nimani o'rganishi, qaysi topshiriqlar individual ishlash uchun, qaysi topshiriqlar guruhiy loyihalar bo'lishi kerakligi haqida qaror qabul qilishi kerak. Yuzma-yuz darslarda talabalar loyiha ishlarini himoya qilishlari, taqdimotlarini namoyish qilishlari va talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida bahs-munozaralar tashkil etishlari, onlayn shaklida esa loyihalar, ijodiy va amaliy vazifalar, nazorat testlarini tashkil etishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barbour M. History of K-12 Online and Blended Instruction Worldwide'. Handbook of Research on K-12 Online and Blended Learning. N.P., ETC Press Publ., 2014. – 516 p.

2. Bonk, C.J. & Graham, C.R. (2006). The handbook of blended learning environments: Global perspectives, local designs. San Francisco: Jossey-Bass/Pfeiffer. — 624 p.

3. Clark, R.T., Mayer, R.E. E-learning and the Science Instruction. San Francisco: Preiffer, 2003. – 527 p.

4. Declan Byrne, Blended learning. http://www. trainingreference.co.uk/ blended_learning/ bldacg1.htm

5. Esyin Chew, Norah Jones, David Turner. Critical Review of the Blended Learning Models based on Maslow's and Vygotsky's Educational Theory, available at: http:// ihlsociety.org/ ICHL2008/ LNCSProceedings/ ICHL2008 Esyin Chew14 pages. pdf (request date: 08.07.2020).

6. Friesen N. Report: Defining Blended Learning, available at: https:// www. normfriesen. info/papers/ Defining Blended Learning NF. pdf (request date: 31.06.2020)

7. Friesen N. Defining Blended Learning, August 2012, available at: https://www. normfriesen. info/papers/ Defining Blended Learning NF. pdf (request date: 21.06.2020)

8. Garrison, D. R., & Kanuka, H Blended learning: uncovering its transformative potential in higher education // Internet and HigherEducation. 2004. № 7(2). – pp. 95–105.

9. Launer R. Five Assumptions on Blended Learning: What Is Important to Make Blended Learning a Successful Concept? // «International Conference on Hybrid Learning». Berlin: Springer Verlag Publ., 2010. – pp. 9–15.

10. Manya Suresh, V.Vishnu Priya, R.Gayathri. Effect of e-learning on academic performance of undergraduate students. Drug Invention Today |Vol 10. Issue 9. 2018. – pp. 1779-1800.

11. Martyn, Margie. The hybrid online model: Good practice // EducauseQuarterly. 2003. № 26. – pp. 18-23.

12. Ruth Boelens (UGent), Stijn Van Laer, Bram De Wever (UGent) and Jan Elen. Blended learning in adult education: towards adefinition of blended learning. Available at: https://biblio.ugent.be/publication/6905076 (request date:5.06.2020).

13. Stacey E., Gerbic P. Success Factors for Blended Learning, available at: http:// www. ascilite.org/ conferences/ melbourne08/ procs/stacey.pdf (request date: 5.06.2020).

14. Tomlinson, B. Blended Learning in English Language Teaching: Course Design and Implementation / Tomlinson B., Whittaker C. // British Council 2013. – 258 p. Available at: https:// www. teachingenglish.org.uk/ sites/ teacheng/files/pub_D057_Blended%20learning_FINAL_WEB%20ONLY_v2.pdf (request date:15.07.2020).

15. Watson J., Murin A. A History of K-12 Online and Blended Instruction in the United States. Handbook of Research on K-12 Online and Blended Learning. 2014. – 516 p.

16. Krasnova Tatyana Ivanovna. Soprovojdenie i podderjka deyatelьnosti studentov v smeshannom obuchenii. Available at: https://portal.tpu.ru/SHARED/k/KRASNOVA/science/Tab1/Guaidance%2 0and%20support.pdf (request date:10.07.2020).

17. https://www.christenseninstitute.org/ (request date:05.05.2020).

18. Procter C.T. Blended Learning in Practice, available at: www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp 03.rtf (request date: 08.07.2020)